

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD 03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**ERNAZAROVA RANO YULDASHEVNA**

**TALABALARDAGI PSIXOLOGIK STRESS HOLATINI O'ZGARISH  
DINAMIKASI**

**19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent-2023**

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии(PhD) по  
психологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on psychological  
sciences**

**Ernazarova Rano Yuldashevna**

Talabalardagi psixologik stress holatini o'zgarish dinamikasi ..... 3

**Эрназарова Рано Юлдашевна**

Динамика изменения психологического стрессового состояния  
студентов ..... 23

**Ernazarova Rano Yuldashevna**

Dynamics of psychological change of students' stress state ..... 45

**E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 50

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD 03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**ERNAZAROVA RANO YULDASHEVNA**

**TALABALARDAGI PSIXOLOGIK STRESS HOLATINI O'ZGARISH  
DINAMIKASI**

**19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent-2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2023.3.PhD/P376 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining ([www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Jabborov Azim Meyliqulovich**

psixologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Abdurasulov Rustam Abduraimovich**

psixologiya fanlari doktori, professor

**Ismoilova Nurjaxon Zuxuriddinovna**

Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021.P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023- yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz))

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32).

Dissertatsiya avtoreferati 2023- yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2023- yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ da \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi)

**F.A. Akramova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, psixologiya fanlari doktori, dotsent

**N.B. Atabayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, psixologiya fanlari doktori, dotsent

**Z.T. Nishanova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda stress holati tufayli inson psixikasida zo'riqlarning yuzaga kelishi, salomatligiga hamda hayoti-faoliyatiga ziyon yetkazishiga sabab bo'lmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, kuchli stress insonlarning jismoniy va aqliy qobiliyatiga salbiy ta'sir etib, ularning ichkilik, tamaki va boshqa zararli illatlarga bog'liqlikni yuzaga keltirmoqda<sup>1</sup>. Bu borada kelgusi kasbiga ega bo'lishni istagidagi talabalarning ta'lim olishida yuzaga keladigan stressga qarshi kurashish xulqini shakllantirish kunning dolzarb muammolaridan biriga aylantiradi, ulardagi psixologik stress holatining dinamik o'zgarishini ilmiy tadqiq etish masalasini dolzarblashtiradi.

Jahon ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarida talabalardagi psixologik stress holatini o'zgarish dinamikasi va stress holatini yengib o'tishga, stressga qarshi kurashish, stresslarni boshqarish, stressga moslashish kabi koping strategiyalarni qo'llash, stress holatida psixik barqarorlikni saqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada stressning boshlanishi xavotir holati bilan bog'liq ekanligi borasidagi talqinlarga asosan, stress omillarning ta'sirini pasaytirish uchun xavotirga moyillik darajasini me'yorlashtirish muhim o'rin egallashi, o'quv jarayonida stresslarning fiziologik belgilaridan kelib chiqib, talabalarning o'quv faoliyat stressini fiziologik ta'sirlar orqali me'yorlashtirishga yo'naltirilgan psixologik tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratish zaruratini yuzaga keltirib, mazkur muammoni tadqiq etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda jamiyatimiz talab etayotgan har tomonlama yetuk, komil insonni tarbiyalash, shaxs faoliyatida stress holati yuzaga kelishining oldini olishga alohida e'tibor qaratilib zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi: «... ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish»ga oid belgilangan vazifalar asosida<sup>2</sup> yoshlarning har tomonlama intellektual salohiyati, emotsional holatlarining rivojlanishi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni tubdan yaxshilashga alohida e'tibor qaratilganligi, jamiyatimiz a'zolari bo'lgan talabalik davridagilarda stressga barqarorlikni ta'minlash, stresslarni boshqarish kompetensiyasi va kususli vaziyatlarda psixologik himoyani shakllantirishga oid masalalarni ilmiy o'rganish uchun zarur asos bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2019-yil 9-oktabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori va boshqa me'yoriy hujjatlar doirasida belgilangan keng ko'lamlilik strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

---

<sup>1</sup> <https://www.who.int/news-room/questions-and-answers/item/stress#>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Respublikamiz psixolog olimlaridan D.Abdumadjidova, R.Abdurasulov, D.Boymirzayeva, U.Butayeva, N.Ismoilova, F.Gaziyeva, K.Kadirov, S.Mirzayeva, M.Karamyan, D.Arzikulov Z.Elov, B.Sirliyev, D.Mamadiyarova, N.Sagindikova, S.Iskandarova, Z.Fayziyev, F.Shermatov, G‘.Shoumarov, P.Ergashev, U.Qodirov, O.Hayitov va boshqalar tomonidan stressga barqarorlikni ta‘minlash, frustratsiyaning stressogenlik ahamiyati, stress holati yuzaga kelishining oldini olishda yoshlarni destruktiv g‘oyalar ta‘siridan himoyalash, stresslarni boshqarish kompetensiyasini shakllantirish, kazuqli vaziyatlarda psixologik himoyani faollashtirishning psixologik jihatlarini ilmiy tadqiq etishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan A.Akopyan, A.Andreyeva, X.Axmedova, D.Badmayeva, T.Boxan, S.Gagolina, N.Devayev, V.Krivobokova, I.Komarova, O.Lavrov, T.Lisakova, O.Lozgacheva, I.Menshikova, M.Padun, YE.Sapyorova, L.Statueva, M.Xutornaya, O.Sergeyeva va boshqalar nomidan talabalar o‘quv faoliyatida stresslarning yuzaga kelish omillari va stress holatini yengib o‘tish muammosining o‘ziga hos jihatlari ilmiy tadqiq etilgan.

Xorij olimlaridan A.Adler, A.Bandura, R.Kettel, K.Maslak, X.Murrey, G.Sullivan, G.Seleye, Z.Freyd, X.Frendenberger, E.Fromm, K.Xorni, E.Erikson va boshqalar tomonidan stress holatining yuzaga kelishi sabablari va mexanizmlari, stressning shaxs xulq-atvoriga ta‘siriga oid masalalar bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borishgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsion tadqiqot Qarshi davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ITD-3-030-raqamli «Ijtimoiy va pedagogik psixologiyaning etnik asoslarini tadqiq etish» mavzusidagi ilmiy–texnik loyiha doirasida bajarilgan (2018–2021 y.y.).

**Tadqiqotning maqsadi** talabalar o‘quv faoliyatida psixologik stress holati paydo bo‘lishi omillarini va stress holatining o‘zgarish dinamikasini aniqlash bo‘yicha zarur amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

talabalardagi psixologik stress holatini o‘zgarish dinamikasi yangi muhitga moslashish, katta o‘quv yuklamasi, imtihon oldi xavotir va guruhdagi nizolarning yuqori darajada ta‘sir etishi tufayli stressga barqarorlikning shakllanganlik darajasiga bog‘liq ekanligini aniqlash;

talaba shaxsiga o‘quv faoliyatidagi kognitiv, ijtimoiy omillar ta‘siri natijasida faollik, hissiy komfortlik, pozitiv kayfiyat, qat‘iyatlilik va muloqotchanlik xususiyatlarini kasbiy sifatlarga integral tarzda psixoemotsional sohada namoyon bo‘lishi holatini kuchayishi tufayli stressga bardoshlilikni yoshga bog‘liq ravishda shakllanishini asoslash;

talabalardagi psixologik stress holatini o'zgarish dinamikasi stressga chidamlilik, muammoni yechish, muammoni konstruktiv baholash va o'z vaqtida ratsional hal eta olish hamda yuqori tanqidiy tafakkur xususiyatarini yoshga oid differensial shakllanishi tufayli koping sifatlarning barqaror ravishda rivojlanishiga identiv ekanligini aniqlash;

talabalarda stressga barqarorlikni shakllantirishda shaxslararo munosabatlarda stressni boshqarish, stress holatidagi faollikni konstruktivlashtirish, self-menejment, ijtimoiy mas'uliyat, irodaviy sifatlarni rivojlantirish muhimligi tufayli ratsional-emotiv sohaga korreksion adaptiv ta'sir etish zaruratini asoslash.

**Tadqiqotning ob'yekti** sifatida talabalar o'quv faoliyatida psixologik stress holati paydo bo'lishi omillarini tadqiq etish jarayoni olingan bo'lib, tadqiqotga Jizzax davlat pedagogika universiteti, Samarqand davlat universiteti va Qarshi davlat universiteti psixologiya yo'nalishi barcha kursida tahsil olayotgan talabalar jalb etilgan bo'lib, respondentlarning umumiy soni jami 417 nafarni tashkil etgan.

**Tadqiqotning predmeti** talabalar o'quv faoliyatida psixologik stress holatini diagnostika qilish va korreksiyalash jarayoni tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida suhbat, kuzatish metodlari, shuningdek, N.V.Kirsheva, N.V.Ryabchikovaning «Stressga barqarorlikni aniqlash» testi, J.Teylorning «Xavotir shkalasi», V.A.Doskinning hissiyot, faollik, kayfiyatlarni aniqlashda «SAN» metodikasi, D.Amirxanning «Koping-strategiyalar indikatori» metodikalardan foydalanildi. Olingan natijalarning ishonchlilik darajasi matematik-statistik metodlaridan Styudentning t-mezoni, K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsientini qo'llash orqali tasdiqlandi.

#### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

talabalardagi psixologik stress holatini o'zgarish dinamikasi yangi muhitga moslashish, katta o'quv yuklamasi, imtihon oldi xavotir va guruhdagi nizolarning yuqori darajada ta'sir etishi tufayli stressga barqarorlikning shakllanganlik darajasiga bog'liq ekanligi dalillangan;

talaba shaxsiga o'quv faoliyatidagi kognitiv, ijtimoiy omillar ta'siri natijasida faollik, hissiy komfortlik, pozitiv kayfiyat, qat'iyatlilik va muloqotchanlik xususiyatlarini kasbiy sifatlarga integral tarzda psixoemotsional sohada namoyon bo'lishi holatini kuchayishi tufayli stressga bardoshlilikni yoshga bog'liq ravishda shakllanishi asoslangan;

talabalardagi psixologik stress holatini o'zgarish dinamikasi stressga chidamlilik, muammoni yechish, muammoni konstruktiv baholash va o'z vaqtida ratsional hal eta olish hamda yuqori tanqidiy tafakkur xususiyatarini yoshga oid differensial shakllanishi tufayli koping sifatlarning barqaror ravishda rivojlanishiga identiv ekanligi isbotlangan;

talabalarda stressga barqarorlikni shakllantirishda shaxslararo munosabatlarda stressni boshqarish, stress holatidagi faollikni konstruktivlashtirish, self-menejment, ijtimoiy mas'uliyat, irodaviy sifatlarni rivojlantirish muhimligi tufayli ratsional-emotiv sohaga korreksion adaptiv ta'sir etish zarurati asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

talabalar o'quv faoliyatiga xos stress omillarini aniqlash uchun anketa so'rovnomasi ishlab chiqilgan va qo'llanilgan;

talabalardagi psixologik stress holatini o'zgarish dinamikasini asoslash maqsadida korreksiya amaliyotining bosqichlari ishlab chiqilgan va amaliyotga kiritilgan;

talabalarining o'quv faoliyatida stressga barqarorlikni ta'minlashda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun ijtimoiy-psixologik trening dasturi yaratilgan va «Konsultativ psixologiya va psixokorreksiya» darsligi mazmunida o'z aksini topgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot ob'yektlarining maqsadga mos tanlanganligi, ilmiy tekshirishlarda qatnashgan respondentlarning yetarlicha reprezentivligi, tanlangan metodikalarning validligi va ishonchliligi, olingan empirik miqdorlarning matematik-statistikaning ishonchli usullari yordamida tahlil qilinganligi, izlanishlar aniq va reja bosqichlarda bir-birini to'ldiruvchi usullar yordamida amalga oshirilganligi, tadqiqot davomida shakllantirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etish, kontent-tahlil, t-mezoni va ma'lumotlarni qayta ishlash SPSS dasturi vositasida asoslanganligi, ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzulmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati ilgari surilgan g'oyalar va olingan empirik ma'lumotlar oliy ta'lim muassasalarining pedagogika va psixologiya yonalishlarida o'qitiladigan «Psixodiagnostika», «Konsultativ psixologiya va psixokorreksiya», «Ijtimoiy-psixologik trening» fanlarini amaliy manba bilan boyitishga hamda amaliyotchi psixologlarning kasbiy kompetensiyasini oshirishga xizmat qiluvchi psixodiagnostika va psixokorreksion choralarni ishlab chiqish imkoniyatini berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot doirasida erishilgan natijalar talabalar bilan olib boriladigan psixokorreksion ishlarni aniqlashtirishga, stress holatida ularga xos muammolar yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlarda, oliy ta'lim muassasasi psixologi va pedagogining talabalar bilan ishlash jarayonida, talabalarining ma'naviy qarashlari bilan ishlashga mas'ul bo'lgan tyutorlar faoliyatida, psixologik xizmat ko'rsatish markazlarida qo'llanma sifatida foydalanilish imkoniyatini berishi mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Talabalardagi psixologik stress holatining o'zgarish dinamikasi bo'yicha erishilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

talabalardagi psixologik stress holatini o'zgarish dinamikasi yangi muhitga moslashish, katta o'quv yuklamasi, imtihon oldi xavotir va guruhdagi nizolarning yuqori darajada ta'sir etishi tufayli stressga barqarorlikning shakllanganlik darajasiga bog'liq ekanligi dalillanganligi takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 12-avgustdagi PM-51 sonli buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Pedagogik psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 14-avgustdagi PM-51a sonli ma'lumotnomasi). Natijada talabalardagi psixologik stress holatini o'zgarish dinamikasi stress holatini

diagnostika qilish usullari borasida asosiy omillar yuqori darajada ta'sir etishini aniqlash imkoniyati yaratilgan;

talaba shaxsiga o'quv faoliyatidagi kognitiv, ijtimoiy omillar ta'siri natijasida faollik, hissiy komfortlik, pozitiv kayfiyat, qat'iyatlilik va muloqotchanlik xususiyatlarini kasbiy sifatlarga integral tarzda psixoemotsional sohada namoyon bo'lishi holatini kuchayishi tufayli stressga bardoshlilikni yoshga bog'liq ravishda shakllanishi asoslangan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 12-avgustdagi PM-51 sonli buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Pedagogik psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 14-avgustdagi PM-51a sonli ma'lumotnomasi). Natijada talaba shaxsiga o'quv faoliyatidagi kognitiv ijtimoiy omillar ta'siri natijasida faollik, xissiy komfortlik, pozitiv kayfiyat, qat'iyatlilik va muloqotchanlik xususiyatlarini kasbiy sifatlarga integral tarzda psixoemotsional sohada namoyon bo'lish holatining kuchayishi tufayli stressga bardoshlilikni yoshga bog'liq ravishda shakllanishiga oid uslubiy ma'lumotlar takomillashtirilgan;

talabalardagi psixologik stress holatini o'zgarish dinamikasi stressga chidamlilik, muammoni yechish, muammoni konstruktiv baholash va o'z vaqtida ratsional hal eta olish hamda yuqori tanqidiy tafakkur xususiyatlarini yoshga oid differensial shakllanishi tufayli koping sifatlarning barqaror ravishda rivojlanishiga identiv ekanligi isbotlangan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 12-avgustdagi PM-51 sonli buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Pedagogik psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 14-avgustdagi PM-51a sonli ma'lumotnomasi). Natijada talabalardagi psixologik stress holatining o'zgarish dinamikasini tahlil qilish imkoniyati yaratilgan;

talabalarda stressga barqarorlikni shakllantirishda shaxslararo munosabatlarda stressni boshqarish, stress holatidagi faollikni konstruktivlashtirish, self-menejment, ijtimoiy mas'uliyat, irodaviy sifatlarni rivojlantirish muhimligi tufayli ratsional-emotiv sohaga korreksion adaptiv ta'sir etish zarurati asoslangan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 12-avgustdagi PM-51 sonli buyrug'i bilan «Konsultativ psixologiya va psixokorreksiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 14-avgustdagi PM-51a sonli ma'lumotnomasi). Natijada talabalarda stressga barqarorlikni shakllantirishda shaxslararo munosabatlarda stressni boshqarish, stress holatidagi faollikni konstruktivlashtirish, self-menejment ijtimoiy mas'uliyat, irodaviy sifatlarni rivojlantirish muhimligi tufayli ratsional-emotiv sohaga korreksion adaptiv ta'sir etish usullari yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi

tomonidan tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 6 ta (4 ta respublika va 2 ta xorijiy ilmiy jurnallarda) maqolalar nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Tadqiqot ishining hajmi ilovalardan tashqari 170 sahifani tashkil etadi

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish qismida** dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalar belgilangan, metodlar, ob'ekt va predmet aniqlangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotda tadbiiq etilishi, ilmiy nashrlarda e'lon qilinishi, dissertatsion ishning tuzilishi yuzasidan ma'lumot keltirilgan.


Dissertatsiyaning «**Psixologiyada stress holatini o'rganishga nazariy-metodologik yondashuvlar**» deb nomlangan birinchi bobida shaxs hayotda turli muammoli vaziyatlar sababli paydo bo'luvchi stress holati, stressning inson organizmiga ta'siri, stressorlar ta'sirida organizmning ichki muvozanati gomeostaz izdan chiqishi, stress sababli shaxs faoliyatida paydo bo'ladigan o'zgarishlar, stressning fiziologik va psixologik asosi, stressning yuzaga kelish bosqichlari borasida ma'lumotlar keltirilgan.

Fiziologik stress organizmga bo'lgan kuchli jismoniy va psixik ta'sirlar bilan bog'liq bo'lsa, psixologik stress shaxs psixikasida kechayotgan jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, shaxs tomonidan o'zining qiyin, ekstremal holatini o'ziga xos ko'rinishda aks ettirishdan iborat bo'lgan psixik holatdir (A.G.Maklakov, S.A.Salexov). Stress holati aktiv faoliyat, baholash, faoliyatning nomuvofiqligi, jismoniy va tabiiy kabi stressorlar ta'sirida paydo bo'ladi (S.A. Razumov). Davomiyligiga ko'ra qisqa va uzoq vaqt ta'sir etuvchi stressorlar ajratiladi (V.Xarris). Stressni ifodalovchi somatik, emotsional, xulq-atvor, kognitiv belgilari mavjud (L.V.Kakshina, T.L.Shabanova). Stress holati yuzaga kelishida xavotir katta rol bajaradi. Xavotir emotsional kechinma bo'lib, oldindagi vaziyatning noaniqligi sababli paydo bo'luvchi noqulaylik bilan tavsiflanadi (R.A. Grexov, Z.Freyd, G.S. Sallivan, K.Xorni). Talabalar stress barqarorligiga shaxsiy va reaktiv xavotir, yuqori ijtimoiy xohish, o'zini past baholash, muvaffaqiyatsizlikdan qochish, muloqot malakalarining past darajada rivojlanganligi salbiy ta'sir ko'rsatadi (O.V. Lozgacheva). Shu bilan birga talabalar o'quv jarayonida va imtihon oldidan xavotir, fiziologik o'zgarishlar va stress yuzaga kelishi o'rganilgan (A.N. Akopyan, Y.V. Sapyorova, O.V. Lavrov, T.N. Lisakova). Talabalarda o'z-o'ziga baho va frustratsion vaziyatlarga tolerant munosabatda bo'lish determinantlari bilan stressga barqarorlik o'rtasida ahamiyatli o'zaro aloqadorlik mavjudligi aniqlangan (N.Z. Ismoilova). Kazusli vaziyatlar shaxs faoliyatini keskin o'zgartirishga qodir voqelik ekanligi, emotsional beqarorlikni, asabiy taranglikni, ayniqsa stress, affekt, depressiya kabi salbiy kechinmalar yuzaga keltirishi aytilgan (Z.H. Fayziyev). Talabalarda zo'riqish,

stressogenlik, frustratsiyaning keng tarqalganligi psixologik himoya masalasini dolzarbligini ko'rsatadi (D.D. Boymirzayeva).

Dissertatsiyaning «**Talabalarda psixologik stress holatini yengishning empirik tahlili**» deb nomlangan ikkinchi bobida talabalarda stress holatini o'rganish uchun diagnostik usullar tahlili, tadqiqotni tashkil etish bosqichlari, talabalarga ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlili, stressga barqarorligi, stress holatidagi faolligi hamda xulq-atvor ko'rinishi diagnostik natijalari keltirilgan.

Talabalarda stress holati paydo bo'lishiga ta'sir etuvchi asosiy omillari to'rt bosqich talabalarida «Talabalik davri stress omillari» nomli mualliflik anketa so'rovnoma yordamida aniqlangan. Birinchi kurs talabalarida yangi muhitga moslashish muammolari omili 75,6%; o'qishga jiddiy munosabat omili 82,2%; topshiriqlarni bajara olmaslik bilan bog'liq muammolar 71,1%; imtihon oldi xavotir 84,4%; guruhdagi nizo omili 62,2%; kunlik faoliyatni rejalash muammosi 57,8%; oiladan uzoqda yashash 48,9% bo'lib asosiy stressorlar sifatida ifodalangan. Ikkinchi va uchinchi kursda tahsil oluvchi talabalarda mazkur so'rovnoma bo'yicha natijalar deyarli bir xil ko'rsatkichni namoyon qilgan. To'rtinchi kurs talabalarida ham xuddi birinchi bosqich talabalariga o'xshash natijalar aks etgan. Buning asosiy sababi sifatida, birinchi bosqich talabalariga o'quv faoliyatiga moslashuv jarayonini boshdan kechirsalar, oxirgi bosqich talabalariga esa, o'quv faoliyati yakunida nimalarni



o'zlashtirgani vakelajakda munosib kasb egallay olishi bilan bog'liq xavotir kabi omillar ustunlik qilayotganligidan darak beradi, 1-rasmga qarang

### 1-rasm. Talabalarda stressni yuzaga keltiruvchi omillar

Birinchi kursda talabalarining yangi muhitga qo'shilganligi va moslashish jarayonida ekanligi bilan izohlanadi. Ikkinchi kurs talabalarida stress omillar asosan talabalarining o'qish jarayonidagi mas'uliyat, jumladan, imtihon oldi xavotir, uyga vazifalar, o'qishga jiddiy munosabat omili mavjud. Uchinchi kurs talabalarida o'qish

va o'zi egallayotgan kasbga munosabatning o'zgarishi, turmush qurish va oilaviy muammolar omili namoyon bo'lgan. To'rtinchi kurs bitiruv oldidan imtihonlarga tayyorlanish, shu bilan birga, talabalarda o'qish va o'zi egallayotgan kasbga munosabatning o'zgarishi, o'z kasbiy taraqqiyotiga ishonchsizlik, turmush qurish va oilaviy muammolar namoyon bo'lgan.

Talabalarining stressga moyillik darajasini diagnostika qilish maqsadida J.Teylorning «Xavotir shkalasi» testi qo'llanildi. Ushbu test diagnostik natijalariga asosan doimiy xavotir, ichki bosim sababli shakllanuvchi stressga moyillik talabalarda qanday darajada mavjud ekanligi har bir kurs doirasida aniqlangan, 1-jadvalga qarang.

## 1- jadval.

### Talabalarda stressga moyillik darajasi diagnostikasi, J.Teylorning «Xavotir shkalasi» metodikasi asosida, n=417

№	TG, n=242						NG, n=175						T
	O'g'il	%	Qiz	%	M (vil)	%	O'g'il	%	qiz	%	M (vil)	%	
1-kurs	39,7	79,5	42,0	84,0	40,9	81,7	40,1	80,2	43,1	86,1	41,6	83,2	2,12*
2-kurs	24,7	49,4	23,7	47,5	24,2	48,4	24,6	49,3	23,7	47,4	24,2	48,3	1,08
3-kurs	21,6	43,2	20,2	40,5	20,9	41,8	21,6	43,2	20,9	41,8	21,3	42,5	1,24
4-kurs	32,8	65,6	31,6	63,2	32,2	64,4	33,7	67,5	32,0	63,9	32,9	65,7	2,01*

Izoh: \*  $r \leq 0,05$ .

Birinchi kurs TGda o'rtacha 81,7% (juda yuqori), NGda o'rtacha 83,2% (juda yuqori) va to'rtinchi kurs TGda o'rtacha 64,4% (yuqori), NGda o'rtacha 65,7% (yuqori) talabalarida stressga moyillik darajasi yuqori ekanligi natijalardan namoyon bo'ldi. Ikkinchi va uchinchi kurs talabalarida esa, stressga moyillik darajasi o'rtacha ekanligini anglatmoqda.

To'rtinchi kurs talabalarida barcha viloyatlar bo'yicha TG va NGda doimiy xavotir, ichki bosim va stressga moyillik yuqori ekanligi aniqlangan. Talabalarda o'qish jarayoniga doir, xususan, bitiruv imtihonlarini topshirish, bundan tashqari o'qishni tamomlagandan keyingi faoliyatini rejalashtirish bilan bog'liq xavotir mavjud ekanligi bilan alohida xarakterlanadi.

Talabalarining stressga barqarorlik darajasini aniqlash maqsadida N.V. Kirsheva va N.V.Ryabchikovaning «Stressga barqarorlikni aniqlash» testi qo'llanilgan. Ushbu testning izohiga asosan, ko'rsatkichlarning qanchalik yuqori bo'lishi stressga barqarorlik darajasining shunchalik quyi ekanligini anglatadi, 2-jadvalga qarang.

Birinchi kurs TGda o'rtacha 92,0% (quyi), NGda o'rtacha 93,5% (quyi). Ikkinchi kurs TGda o'rtacha 81,1% (o'rtadan biroz past), NGda o'rtacha 82,5% (o'rtadan biroz past). Uchinchi kurs TGda o'rtacha 77,4% (o'rtadan biroz past), NGda o'rtacha 78,4% (o'rtadan biroz past). To'rtinchi kurs TGda o'rtacha 88,8%

(o'rtadan past), NGda o'rtacha 90,6% (o'rtadan past) singari natijalarni namoyon etgan. Bu natijalardan ko'rish mumkinki, oliy ta'limda tahsil oluvchi to'rt bosqichdagi talabalarning stressga barqarorlik darajasi standart normaga ko'ra, o'rtacha ekanligidan darak beradi.

## 2-jadval.


**Talabalarining stressga barqarorlik darajasi ko'rsatkichlari,**  
N.V.Kirsheva va N.V. Ryabchikovalarning «Stressga barqarorlikni aniqlash» metodikasi asosida, n=417

№	TG, n=242						NG, n=175						T
	o'g'il	%	Qiz	%	M (vil)	%	o'g'il	%	qiz	%	M (vil)	%	
1-kurs	48,9	90,6	50,5	93,5	49,7	92,0	49,5	91,6	51,5	95,3	50,5	93,5	1,67
2-kurs	42,5	78,7	45,1	83,5	43,8	81,1	43,8	81,2	45,3	83,8	44,6	82,5	2,23*
3-kurs	40,4	74,8	43,2	79,9	41,8	77,4	41,7	77,3	43,0	79,6	42,4	78,4	1,52
4-kurs	46,7	86,5	49,1	91,0	47,9	88,8	47,8	88,5	50,0	92,7	48,9	90,6	2,31*

Izoh: \*  $r \leq 0,05$ .

Birinchi kurs talabalarida doimiy xavotir va stressga moyillikning yuqori ekanligi, ikkinchi kurs talabalarida o'quv jarayoniga xos stressga barqarorlik, uchinchi kurs talabalarida o'quv jarayoniga xos, shaxsiy hayot bilan bog'liq stress omillar hamda to'rtinchi kurs talabalarida bitiruv oldi imtihonlar, shaxsiy hayot bilan bog'liq stress omillari ta'sir etgan.

Stress ta'sirida talabalarida salbiy emotsional holat va o'quv jarayonidagi




faolligi pasayishi mumkin. Shu sababli stress holatida talabalarining hissiyoti, faolligi va kayfiyatini V.A. Doskinning «SAN» metodikasi yordamida o'rganildi. Diagnostika natijalari har bir kurs uchun alohida jadvallar shaklida ifodalangan, 2-rasmda ifodalangan.

**2-rasm. Talabalarda «Hissiyot», «Faollik», «Kayfiyat» shkalalari diagnostikasi, V.A. Doskinning «SAN» metodikasi asosida**

Birinchi kurs talabalarida: hissiyot shkalasi TG bo'yicha o'rtacha 53,0% (me'yordan past), NG bo'yicha o'rtacha 54,7% (me'yordan past); faollik shkalasi TG bo'yicha o'rtacha 56,0% (me'yordan past), NG bo'yicha o'rtacha 54,6% (me'yordan past); kayfiyat shkalasi TG bo'yicha o'rtacha 55,6% (me'yordan past), NG bo'yicha o'rtacha 55,6% (me'yordan past). Talabalarda moslashuv jarayoni kechayotganligi, stressga moyillik yuqoriligi va stressga barqarorlik past ekanligi ularning hissiyoti, faolligi va kayfiyatiga ta'sir etgan. Ikkinchi kurs talabalarida: hissiyot, faollik va kayfiyat shkalalari yuqoriroq natijani aks etgan. Talabalarda o'quv jarayoni bilan bog'liq stresslar mavjud ekanligi ularning hissiyoti, faolligi va kayfiyatiga ta'sir etgan.

Uchinchi kurs talabalarida esa eng yuqori birliklar, ya'ni hissiyot shkalasi TG bo'yicha o'rtacha 71,7% (me'yoriy), NG bo'yicha o'rtacha 72,1% (me'yoriy); faollik shkalasi TG bo'yicha o'rtacha 71,9% (me'yoriy), NG bo'yicha o'rtacha 72,6% (me'yoriy); kayfiyat shkalasi TG bo'yicha o'rtacha 71,9% (me'yoriy), NG bo'yicha o'rtacha 72,0% (me'yoriy). Talabalarda o'quv jarayoni va shaxsiy hayot bilan bog'liq yuqori bo'lmagan stresslar mavjud ekanligi ularning hissiyoti, faolligi va kayfiyati me'yoriy bo'lishiga sabab bo'lgan. To'rtinchi kurs talabalarida ham hissiyot, faollik va kayfiyat shkalalari o'rtachadan yuqoriroq natijani namoyon qilgan. Talabalarda stressga moyillik yuqori, stressga barqarorlik o'rtadan past ekanligi ularning hissiyoti, faolligi va kayfiyatiga ta'sir etgan.

Stress holatida talabalarda qaysi koping-strategiyalarni qo'llashi ularning muammoga qanday yondashishini ko'rsatadi. Shu sababli D.Amirxanning «Koping-strategiyalar indikatori» testi yordamida talabalarda stress holatidagi koping-strategiyalari diagnostika qilindi, 3-rasmga qarang.



### **3-rasm. Talabalar stress holatida koping-strategiyalar diagnostikasi,**

D.Amirxanning «Koping-strategiyalar indikator» metodikasi asosida

Birinchi kurs talabalarida: muammoni yechishga qaratilgan koping-strategiya tahlili TG bo'yicha o'rtacha 43,3% (juda past), NG bo'yicha o'rtacha 45,5% (juda past); ijtimoiy ko'mak olishga qaratilgan koping-strategiya tahlili TG bo'yicha o'rtacha 95,2% (yuqori), NG bo'yicha o'rtacha 92,6% (yuqori); muammodan qochishga qaratilgan koping-strategiya tahlili TG bo'yicha o'rtacha 92,0% (yuqori), NG bo'yicha o'rtacha 92,3% (yuqori). Ikkinchi kurs talabalarida: muammoni yechishga qaratilgan koping-strategiya tahlili TG bo'yicha o'rtacha 55,6% (past), NG bo'yicha o'rtacha 53,0% (past); ijtimoiy ko'mak olishga qaratilgan koping-strategiya tahlili TG bo'yicha o'rtacha 78,2% (o'rta), NG bo'yicha o'rtacha 78,7% (o'rta); muammodan qochishga qaratilgan koping-strategiya tahlili TG bo'yicha o'rtacha 83,1% (yuqori), NG bo'yicha o'rtacha 86,3% (yuqori). Talabalarida stress omillar ko'pligi, stressga moyillik yuqoriligi va stressga barqarorlik pastligi ularda muammodan qochish va boshqalardan ko'mak kutish xulqi yuzaga kelishiga asos bo'lgan. Talabalarida o'quv faoliyati stress omillari, stressga moyillik mavjudligi ularda muammodan qochish xulqi yuzaga kelishiga asos bo'lgan.

Uchinchi va to'rtinchi kurs talabalarida esa koping strategiya so'rovnomasi shkalalari, birinchi va ikkinchi kurs talabalariga qaraganda ijobiy natijalarni taqdim etgan. Bu esa, talabani kurslar tizimidagi yuqorilab borishiga bog'liq ekan. Talabalarida o'quv faoliyati va shaxsiy hayot bilan bog'liq stress omillari mavjudligi, stressga moyillik yuqoriligi ularda muammodan qochish va boshqalardan ko'mak kutish xulqi yuzaga kelishiga asos bo'lgan.

Dissertatsiyaning «**Talabalardagi psixologik stress holatini yengishning psixokorreksion rivojlantiruvchi texnologiyalari**» deb nomlangan uchinchi bobda stress holatini yuzaga keltiruvchi asosiy omillar, ularning stressga moyillik darajasi, stressga barqarorlik darajasi, stress ta'sirida talabalarning emotsional holati hissiyoti, faolligi va kayfiyati hamda stress holatidagi xulq ko'rinishida koping-strategiyalarni qo'llash bo'yicha diagnostik natijalarga asosan tajriba guruhi sifatida ishtirok etgan talabalarida stress holatini psixologik korreksiyalash amaliyoti yoritilgan.

Talabalar bilan olib borilgan stress holati psixokorreksiyasi amaliyoti to'rt bosqichda tashkil etildi.

Psixokorreksiya amaliyotining birinchi bosqichi o'quv faoliyati bilan bog'liq va o'quv faoliyatidan tashqari stress omillar ta'sirini kamaytirish maqsadida olib borilgan. Stress omillar ta'sirini kamaytirish uchun jismoniy mashqlar, stresslarni boshqarish usuli, ijtimoiy ko'mak berish usuli qo'llanilgan. Stressga moyillik darajasini me'yorlashtirish uchun meditatsiya, autotrening va relaksatsiya mashqlari tashkil etilgan.

Psixokorreksiya amaliyotining ikkinchi bosqichida talabalarning stress holatidagi hissiyot, kayfiyat va faollik darajalarini me'yorlashtirishga e'tibor qaratilgan. Ushbu bosqich amaliyot davomida vizuallashtirish «Qor odam», «Gulg'uncha», «Sokin uy», «Men o'zgarmoqchiman», «Men o'rmondaman», «O'zimni baholayman», «Rasmimni chizaman» mashqlari, biblioterapiya badiiy

adabiyotlar jamlanmasi va rasm terapiyasi «Xursandchilik rasmi», «Og‘riqni yengaman», «O‘zimga xat», «Mening olamim», «Mening uyim», «Mening odatiy kunim», «Uch xohish», «Xursandchilik oroli» rasmi mashqlar olib borildi.

Psixokorreksiya amaliyotining uchinchi bosqichida stressga barqarorlik darajasini oshirishga e‘tibor qaratilgan. Stress barqarorlikni ta‘minlash jarayonida «Men va stress», «Tugallanmagan jumla», «Stress plyus va minuslari», «Bo‘y bo‘yicha saflan», «Mening hayotimda stress», «Shovqin kvadrati», «Mukammallik doirasi» kabi psixologik treninglar qo‘llanildi.

Psixokorreksiya amaliyotning to‘rtinchi bosqichida stress koping-strategiyalar xulq ko‘rinishini korrektsiyalash vazifasi bajarildi. Muammoni yechish strategiyasi past ko‘rsatkichini oshirish, ijtimoiy ko‘mak olish strategiyasi yuqori ko‘rsatkichini me‘yorlashtirish va muammodan qochish strategiyasi yuqori ko‘rsatkichini kamaytirish amaliyoti tashkil etildi.

Talabalarning stressga moyillik darajasini kamaytirishga qaratilgan korreksiya amaliyotidan keyin J.Teylorning «Xavotir shkalasi» testi qo‘llanilib ularning stressga moyillik darajasi qayta diagnostika qilindi, 3-jadvalga qarang.

### 3-jadval.

#### Talabalarda stressga moyillik natijalari dinamikasi (TG va NG),

J.Teylorning «Xavotir shkalasi» metodikasi asosida n=417

№	TG/ NG	TG, n=242						NG, n=175						T
		o‘g‘il	%	Qiz	%	M	%	O‘g‘il	%	Qiz	%	M	%	
1-kurs	TG	39,7	79,5	42,0	84,0	40,9	81,7	14,0	28,0	16,0	32,1	15,0	30,0	4,21***
	NG	40,1	80,2	43,1	86,1	41,6	83,2	40,2	80,5	41,0	82,0	40,6	81,2	0,91
2-kurs	TG	24,7	49,4	23,7	47,5	24,2	48,4	12,2	24,3	13,5	27,1	12,9	25,7	3,54***
	NG	24,6	49,3	23,7	47,4	24,2	48,3	24,4	48,9	24,7	49,4	24,6	49,1	0,73
3-kurs	TG	21,6	43,2	20,2	40,5	20,9	41,8	10,5	21,1	13,4	26,9	12,0	24,0	3,37***
	NG	21,6	43,2	20,9	41,8	21,3	42,5	21,6	43,1	22,2	44,4	21,9	43,8	0,83
4-kurs	TG	32,8	65,6	31,6	63,2	32,2	64,4	14,5	29,1	15,2	30,5	14,9	29,8	3,87***
	NG	33,7	67,5	32,0	63,9	32,9	65,7	34,6	69,1	35,1	70,1	34,8	69,6	0,94

Izoh: \*\*\*  $r \leq 0,001$ .

Birinchi kurs talabalarda stressga moyillik darajasi TGda o‘rtacha (M) tajribadan oldin (TO) 81,7% (juda yuqori); tajribadan keyin (TK) 30,4% (o‘rta (pastga moyil)); NGda o‘rtacha (M) TO 83,2% (juda yuqori); TK 81,2% (juda yuqori). Tajribadan keyin TG ishtirokchilarining stressga moyilligi o‘rta (pastga moyil) darajasigacha pasaygan. NG ishtirokchilarining stressga moyilligi juda yuqori darajasi saqlanib qolgan.

Ikkinchi va uchinchi kurs talabalarida stressga moyillik darajasi TO va TK natijalar o‘rtchadan pastroq nisbatlarni tashkil etgan.

To'rtinchi kurs talabalarda TGda o'rtacha (M) TO 64,4% (yuqori); TK 29,8% (o'rta (pastga moyil)).

NGda o'rtacha (M) TO 65,7% (yuqori); TK 69,6% (yuqori). Tajribadan keyin TG ishtirokchilarining stressga moyilligi o'rta (pastga moyil) darajasigacha pasaygan. NG ishtirokchilarining stressga moyilligi yuqori darajasi saqlanib qolgan.

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, tajribadan oldin va tajribadan keyingi natijalarga ko'ra, birinchi va to'rtinchi bosqichda tahsil oluvchi talabalarda stressga moyillik yuqoriroq, ikkinchi va uchinchi bosqichdagi talabalarda esa stressga moyillik pastroq ko'rsatkichlarni qayd etgan.

Talabalarining stressga barqarorlik darajasini oshirishga qaratilgan korreksiya amaliyotidan keyin N.V.Kirsheva va N.V.Ryabchikovaning «Stressga barqarorlikni aniqlash» testi qo'llanilib ularning stressga barqarorlik darajasi qayta diagnostika qilindi, 4- jadvalga qarang.

#### 4-jadval.

#### Talabalarda stressga barqarorlikni aniqlash natijalari,

N.V. Kirsheva va N.V. Ryabchikovaning «Stressga barqarorlikni aniqlash» metodikasi asosida, n=417

№	TG/ NG	TG, n=242						NG, n=175						T
		o'g'il	%	Qiz	%	M	%	o'g'il	%	Qiz	%	M	%	
1-kurs	TG	48,9	90,6	50,5	93,5	49,7	92,0	24,9	46,2	26,4	48,8	25,7	47,5	4,12***
	NG	49,5	91,6	51,5	95,3	50,5	93,5	50,6	93,6	52,3	96,9	51,5	95,3	0,78
2-kurs	TG	42,5	78,7	45,1	83,5	43,8	81,1	18,7	34,7	20,1	37,3	19,4	36,0	3,89***
	NG	43,8	81,2	45,3	83,8	44,6	82,5	44,0	81,4	45,2	83,7	44,6	82,6	0,61
3-kurs	TG	40,4	74,8	43,2	79,9	41,8	77,4	21,0	39,0	22,3	41,2	21,7	40,1	3,41***
	NG	41,7	77,3	43,0	79,6	42,4	78,4	43,2	80,0	44,8	83,0	44,0	81,5	0,79
4-kurs	TG	46,7	86,5	49,1	91,0	47,9	88,8	26,7	49,4	27,6	51,1	27,1	50,2	3,53***
	NG	47,8	88,5	50,0	92,7	48,9	90,6	48,2	89,3	49,8	92,3	49,0	90,8	0,72

Izoh: \*\*\*  $r \leq 0,001$ .

Birinchi kurs talabalarda stressga barqarorlik darajasi TGda o'rtacha (M) TO 92,0% (quyi); TK 29,8% (yuqori); NGda o'rtacha (M) TO 93,5% (quyi); TK 95,3% (quyi). Tajribadan keyin TG ishtirokchilarining stressga barqarorligi yuqori darajaga ko'tarilgan. NG ishtirokchilarining stressga barqarorligi juda quyi darajada saqlangan.

Ikkinchi kurs talabalarda stressga barqarorlik darajasi TGda o'rtacha (M) TO 81,1% (o'rtadan biroz past); TK 36,0% (juda yuqori); NGda o'rtacha (M) TO 82,5% (o'rtadan biroz past); TK 82,6% (o'rtadan biroz past). Tajribadan keyin TG ishtirokchilarining stressga barqarorligi yuqori darajaga ko'tarilgan. NG ishtirokchilarining stressga barqarorligi o'rtadan biroz past darajada saqlangan.

Uchinchi kurs talabalarda stressga barqarorlik darajasi TGda o'rtacha (M) TO 77,4% (o'rtadan biroz past); TK 40,1% (juda yuqori); NGda o'rtacha (M) TO 78,4% (o'rtadan biroz past); TK 81,5% (o'rtadan biroz past). Tajribadan keyin TG

ishtirokchilarining stressga barqarorligi juda yuqori darajaga ko'tarilgan. NG ishtirokchilarining stressga barqarorligi o'rtadan biroz past darajada saqlangan.

To'rtinchi kurs talabalarda stressga barqarorlik darajasi TGda o'rtacha (M) TO 88,8% (o'rtadan past); TK 50,2% (yuqori); NGda o'rtacha (M) TO 90,6% (o'rtadan past); TK 90,8% (o'rtadan past). Tajribadan keyin TG ishtirokchilarining stressga barqarorligi yuqori darajaga ko'tarilgan. NG ishtirokchilarining stressga barqarorligi o'rtadan biroz darajada saqlangan.

Uchinchi va to'rtinchi bosqichdagi talabalarda stressga barqarorlik darajasi, birinchi va ikkinchi bosqichdagi talabalarga qaraganda normal holatda ekanligini anglatadi.

Talabalarda stress ta'sirida salbiy emotsional holat va o'quv jarayonidagi faolligi pasayishini korreksiyalash amaliyotidan keyin V.A. Doskinning «SAN» metodikasi qo'llanilib ularning hissiyoti, faolligi va kayfiyati qayta diagnostika qilindi, 5-jadvalga qarang.

### 5-jadval.

#### Talabalarda «Hissiyot», «Faollik», «Kayfiyat» shkalalari o'zgarishi, V.A.Doskinning «SAN» metodikasi asosida, n=417

№	TG/ NG	shkala	TG, n=242						NG, n=175						T
			o'g'il	%	qiz	%	M	%	o'g'il	%	Qiz	%	M	%	
1- kurs	TG	Hissiyot	37,9	54,1	37,1	53,0	37,5	53,6	53,2	76,0	51,9	74,1	52,6	75,1	3,91***
		Faollik	39,7	56,8	38,6	55,2	39,2	56,0	53,6	76,6	52,3	74,7	52,9	75,6	3,73***
		Kayfiyat	38,4	54,9	39,4	56,3	38,9	55,6	52,9	75,6	53,1	75,8	53,0	75,7	3,79***
	NG	Hissiyot	38,9	55,6	37,6	53,8	38,3	54,7	39,4	56,3	38,0	54,3	38,7	55,3	1,03
		Faollik	38,8	55,4	36,3	51,9	37,6	53,6	40,2	57,4	37,1	53,0	38,6	55,2	0,86
		Kayfiyat	39,4	56,3	38,3	54,7	38,8	55,5	40,5	57,9	39,6	56,5	40,1	57,2	0,93
2- kurs	TG	Hissiyot	46,3	66,1	46,0	65,7	46,1	65,9	55,1	78,7	54,0	77,1	54,5	77,9	3,37***
		Faollik	47,2	67,5	46,8	66,8	47,0	67,1	58,0	82,9	56,0	80,0	57,0	81,4	3,59***
		Kayfiyat	48,4	69,2	47,4	67,7	47,9	68,5	53,9	77,0	52,6	75,1	53,3	76,1	3,43***
	NG	Hissiyot	46,4	66,3	46,3	66,1	46,4	66,2	45,7	65,3	44,3	63,3	45,0	64,3	1,14
		Faollik	47,3	67,6	46,6	66,5	47,0	67,1	46,5	66,4	45,6	65,2	46,1	65,8	0,98
